



ARAB TILIDA ZOIDA HARFLAR (AFFIKSLAR)

*Maxmudova Diyora Jamol qizi,
ToshDShU 2-kurs doktoranti,*

Kalit soʻzlar: zoida harf, affiks, prefiks, suffiks, ot, feʼl, sifat, sifatdosh, soʻz vaznlari, harakatlar.

Arab tilida ism va feʼl soʻz turkumlariga oid yangi soʻzlarning yasalishida zoida harflar muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda “zavaid” deb ham yuritiladigan ushbu harflar “affiks” termini maʼnosini bildirib, ular soʻzning boshi, oʻrtasi yoki oxiriga qoʻyiladi.

Somiy tillar oilasiga mansub tillarda qoʻshimchalar orqali soʻz yasalishi – affiksatsiya muhim ahamiyat kasb etib, arab tilida ham uning ahamiyati katta ekanligini koʻrish mumkin. Arab tilshunosi Ibn Yaʼyish zoida harflarni shunday taʼriflaydi:

“Zoida harf (affiks) soʻzga ergashib keluvchi qism boʻlib, u orqali maʼno kengayib boradi. Zoidaning asl mohiyati uning oʻzakka qoʻshilib, baʼzi holatlarda esa tushib qolishi, fa, ʼayn va lam harflari oʻrnida kelayotgan hech bir oʻzak harfining oʻrnini bosa olmasligida namoyon boʻladi. Zoida yo soʻzning bir qismining takrorlanishi, yoki oʻzak tarkibiga kirmaydigan boshqa bir harfning qoʻshilishi bilan xarakterlanadi” [Ibrohim Mustafu, Abdulloh Amin hij.1393: 11].

Rus tilshunosi Grande qoʻshimchalar yordamida soʻz yasalishi (“affiksatsiya”) somiy tillarga tegishli eng muhim morfologik xususiyatlardan biri ekanligini aytadi. Bu oilaga kiruvchi tillarda, xususan, arab tilida ham affikslar bir vaqtning oʻzida soʻzning boshi yoki oxirida, yo boʻlmasa oʻrtasida ham kelishi mumkin [B.M.Grande 1998: 101].

Arab tilidagi soʻzlar tarkibida affikslar ikki xil koʻrinishda namoyon boʻladi. Birinchisi, soʻz tarkibida harf affiks vazifasida kela oladi, masalan, “k,t,b” (“kataba” feʼlining oʻzbek tilidagi maʼnosi “yozmoq”) oʻzining birinchi harfidan soʻng alif qoʻshish bilan “kātibun” (“yozuvchi”/“yozayotgan”) soʻzi yasaladi, bu yerda alif sifatdosh yasovchi “-ayotgan”, yoki ot yasovchi “-uvchi” qoʻshimchalari maʼnosini bildiradi. Ikkinchidan, soʻz tarkibida harakat qoʻshimcha boʻlib keladi, masalan, “nahrun” (daryo) va “naharun” (kenglik, daryo) [Yasir Muhammad Albadaviy Muhammad 2012:22].

Arab tilida yangi soʻzlarning yasalishida quyidagi harflar affikslar vazifasini bajaradi:

| | | | |
|------|---|-------|---|
| Alif | ا | Hamza | ء |
| Waaw | و | Nun | ن |
| Yay | ي | Ha | ه |
| Miym | م | Sin | س |
| Ta | ت | Lam | ل |

Bu harflarni yodda saqlashni yengillatish maqsadida ular ishtirokida gap tuzilgan – “alyawma tansāhu” (tarj. Sen bugun uni unutasan) [N.Ibrohimov, M.Yusupov 1997: 33] va “sa ʼaltumūniyhaa” (tarj. Sizlar mendan uni soʻradingiz) iboralari koʻrinishida yod olinadi. Arab tili oʻrganuvchilari soʻzlarni oʻzak va affiks morfemalarga ajratayotganlarida bu iboralarga murojaat qiladilar, yaʼni, soʻz

tarkibidagi ushbu ibora ichida mavjud boʻlgan harflarni chiqarib tashlash orqali, ular soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajratadilar. Zoida harflarga bagʻishlangan koʻpchilik tadqiqot ishlarida ularni umumiy “zavāid” deya, baʼzi holatlarda esa bunday harflarning soʻz tarkibida kelish oʻrniga koʻra, “savābiq” (“prefikslar”), “lavāhiq” (“sufikslar”) hamda “dawāxil” (“infikslar”) nomlari tilga olinadi. Arab tilida zoida harflar-affikslarning oʻzakka

1-jadval



nisbatan joylashishiga ko'ra tinterfiks, simulfiks, transfiks kabi turlari mavjud [ar.m.wikipedia.org].

Arab tilshunoslarining zoida harflarning soni xususidagi fikrlari doim ham bir joydan chiqmagan. Bunga misol sifatida Basra va Kufa tilshunoslik maktabi vakillarining zoidalar xususida bildirgan fikrlarini keltirish mumkin. Ushbu ikki maktab vakillarining zoida harflar haqidagi fikrlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Biz bugungi kunda o'rganayotgan, zoida harflar soni o'nta ekanligi haqidagi nazariya, aslida, Basra maktabi vakillariga tegishli bo'lib, ular faqatgina mana shu o'nta harf arab tilida zoida bo'lib kela oladi, degan fikrni qo'llab-quvvatlaganlar. Kufa maktabi vakillari esa arab tilida ushbu o'nta harfdan boshqalari ham zoida bo'lib kela oladi, degan fikrni ilgari surganlar. Saudiyalik arab tilshunosi, professor Abdurrazzoq bin Faraj As-Soidiy esa zo'ida harflar sonini o'nta emas, sakkizta deb qayd etib, ularni eslab qolishga oson bo'lishi uchun "anistu yawman" (tarj. "bir kuni ko'nikaman") iborasini taklif qiladi. Yuqoridagi ibora tarkibiga ahamiyat berilsa,

lam hamda ha harflari zoidalar qatoridan chiqarib tashlanganini ko'ramiz. As-Soidiy buni lam va ha harflari so'z tarkibida zoida harf bo'lib kelganda, ular, qolgan zoida harflardan farqli ravishda, hech qanday so'z yasovchi yoki o'zgartiruvchilik xususiyatiga ega bo'lmasligi bilan izohlaydi. Olim fikriga ko'ra, zoida harflar ikki xil bo'ladi:

1. Standart morfologik so'z yasovchi qo'shimchalar, ularga yuqorida sanab o'tilgan sakkizta harf kiradi;

2. Tarixiy so'z yasovchi qo'shimchalar, ularga arab alifbosidagi barcha harflarni kiritish mumkin [As-Soidiy 2012].

As-Soidiy arab tili alifbosidagi barcha harflar ham so'z tarkibida qo'shimcha bo'lib kela oladi, degan fikriga klassik davr arab tilshunoslari Sa'lab, Ibn Foris Manha, Ali bin Al-Hasan al-Hunayy Al-Azidiylarning kitoblarida bu borada keltirilgan misollar bilan isbotlaydi. Al-Azidiyning "Arablar aytgan so'zlar g'aroyibotlarining saylanmasi" kitobida bunday so'z yasovchi qo'shimchalarga ko'plab misollar berilgan, quyida ulardan ba'zilar keltirilgan [Al-Azidiy 1989: 700]:

| O'zak so'z | Zo'ida harflar qo'shilishi natijasida yasalgan hosila so'z |
|-------------------------------|--|
| 'Irtajja – qaltiramoq | 'Irta 'aja – qaltiramoq ('ayn harfi qo'shimcha sifatida kelgan) |
| Şolama – uzmoq | Şolma 'a – uzmoq ('ayn harfi qo'shimcha sifatida kelgan) |
| Jarrada – mahrum qilmoq | 'Ajrada – mahrum qilmoq ('ayn harfi qo'shimcha sifatida kelgan) |
| Hadilun – osilish | Hadliqun – osilish (qof harfi qo'shimcha sifatida kelgan) |
| 'Asalun– asal | 'Asallaqu – mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvonlar (qof harfi qo'shimcha sifatida kelgan) |
| Şolqun – baqirish, qichqirish | Şolanqoĥu – baqirish, qichqirish (qof va nun harflari qo'shimcha sifatida kelgan) |
| Şuflun – qoldiq | Ĥuşfulun – suyuq taomlarning tagida qolgan non ushoqlari (ĥa harfi qo'shimcha sifatida kelgan) |
| Şarraba – qattiq koyimoq | Xaşarrabat albi 'r –quduq suvi ifloslandi(xo harfi qo'shimcha sifatida kelgan) |
| Dumrun – ozg'inlik | Dumrū – ozg'inlik (xo harfi qo'shimcha sifatida kelgan) |

2-jadval



Shuningdek, Al-Azidiy tarkibida standart oʻnta zoida harflaridan (alif, lam, yay, waw, mim, ta, nun, sin, ha, xamza) tashqari qoʻshimchalar boʻlgan soʻzlarning yasash xususiyati borasida ham oʻz fikrlarini bildirib oʻtgan boʻlib, muallif fikriga koʻra, zoida harflar qoʻshilishi natijasida baʼzi uch oʻzakli soʻzlar dastlab toʻrt oʻzakliga, unga yana qoʻshimcha qoʻshilishi bilan esa besh oʻzakliga asta-sekinlik bilan oʻzgarib boradi, masalan:

Hamara – ming ʼirlamoq

↓

Hamraja – shovqin solmoq

↓

Hamarjalatun – tez yuruvchi tuya

Baʼzi uch oʻzakli soʻzlar aslida zoida harf qoʻshilgan ikki oʻzakli soʻzlarning hosila shaklidir, masalan:

matʼta (“choʻzmoq”) – maʼtala (“orqaga tortmoq”, “choʻzmoq”)

romma (“aynimoq”) – rozama (“kiyim taxlamoq”)

rajja (“silkitmoq”, “titramoq”) – raʼija (“koʻpaymoq”)

Al-Azidiy bilan bir qatorda, ibn Foris Manha ham hijoiy harflarning soʻz tarkibida qoʻshimcha sifatida kelishini oʻrganib, oʻzining “Oʻlchamlar” nomli lugʼatida ularni tahlil qilgan. Olim jami 249 ta toʻrt va besh harfli soʻzlarni oʻrganib, ularning har birini qaysi hijoiy harflar vositasida yasalganini koʻrsatgan. Ushbu soʻzlardan 35 tasi ro, 20 tasi ʼayn, 19 tasi ba, 11 tasi dal, 6 tasi fa va beshtasi ha qoʻshilishi natijasida yasalganini aniqlagan hamda sha, za va sod harflarini qoʻshimchalar qatoriga kiritmagan [As-Soidiy 2012].

Arab tilida soʻz, unga zoida harflarning qoʻshilishi natijasida toʻrt, besh, olti va hatto, yetti oʻzakli hosila soʻzga ham oʻzgarishi mumkin. Ushbu harflar soʻz tarkibida, albatta, arab tilidagi unli tovushlarni bildiruvchi kasra (“i”), qomma (“u”) hamda fatha (“a”) harakatlaridan biri bilan keladi. Soʻzni maʼnoli qismlarga ajratishda, ushbu harflarning joylashish oʻrniga ham eʼtibor berish lozim, aynan shu jihat orqali soʻzlarni maʼnoli qismlarga oson ajratish mumkin. Buni quyidagi bandlar orqali muxtasar izohlab beramiz:

1. Soʻz tarkibidagi uch undosh harflardan oldin kelayotgan har bir hamza, yay, nun va ta harflari zoida harflar sanaladi, masalan:

ʼAktubu: Men yozayapman. Ushbu soʻzning birinchi hamzali alif harfi hozirgi zamon feʼlining birinchi shaxs, birlik shaklini yasovchi “-yapman” qoʻshimchasi sanaladi.

ʼAhmadu: 1. Ahmad; 2. Eng maqtovli. Ushbu soʻzda ham birinchi hamzali alif harfi sifatning qiyosiy-orttirma darajasini yasovchi qoʻshimcha hisoblanib, bu yerda u “eng” yuklamasi maʼnosini bildiradi.

ʼYadribu: U urayapti (muzakkar jinsi). Bu soʻzning birinchi ya harfi feʼlining hozirgi zamon shaklini yasovchi uchinchi shaxs birlik “-yapti” qoʻshimchasidir.

ʼNajma ʼu: Biz yigʼayapmiz. Ushbu feʼl tarkibidagi dastlabki nun (n) harfi feʼlining hozirgi zamon shakli, birinchi shaxs, koʻplik sonini yasovchi “-yapmiz” qoʻshimchasidir.

ʼTasma ʼu: 1. Sen eshitayapsan (muzakkar jinsi). 2. U eshitayapti (muannas jinsi). Ushbu feʼldagi ta harfi feʼlining hozirgi zamon shakli, ikkinchi shaxs, birlik sonini yasovchi “-yapsan” (kontekstga qarab, “-yapti” deb ham tarjima qilish mumkin) qoʻshimchasidir.

2. Uch va undan ortiq undosh harflardan oldin kelayotgan har bir mim zoida harf sanaladi, masalan:

ʼMaʼshna ʼun: zavod. Bu soʻzning mim harfi oʻrin-joy nomini yasovchi qoʻshimcha sanaladi.

ʼMahmuudun: maqtalgan. Bu soʻzda esa mim, choʻziq “u” unli tovushini bildirayotgan waw bilan birgalikda majhul daraja sifatdosh yasovchi “-l” qoʻshimchasi vazifasini bajarib kelmoqda.

ʼMusmi ʼun: majburlab eshittiruvchi, ijrochi. ʼAsma ʼa (majburlab eshittirmoq; ijro etmoq) toʻrtinchi bob vazni shaklida turgan feʼldan, uning boshiga “mu-” prefiksini qoʻyish orqali aniq daraja sifatdosh shakli yasaldi. Bu soʻz tarkibida mim zoida harf sanaladi. U oʻzbek tilida ot yasovchi “-chi” yoki “-yotgan” qoʻshimchalariga toʻgʻri keladi.

ʼMunʼtoliqun: yoʻlga chiqayotgan odam. Bu yerda ham ajratib koʻrsatilgan zoida harf orqali aniq daraja sifatdosh shakli yasaladi.



3. Uchta undosh harflardan oldin kelayotgan har bir alif va nun, yay va nun, ta va nun, nun harfining o'zi, nun va mim harflari zoida harflar sanaladi, masalan:

Inqasama: bo'linmoq. Bu yerda ajratib ko'rsatilgan zoida harf o'zbek tilidagi majhullikni anglatuvchi "-il" qo'shimchasi ma'nosini beradi.

yandaḥiru: u yengilayapti. Bu so'zda ajratib ko'rsatilgan zoida harflar fe'lining hozirgi zamon shakli, muzakkar jinsidagi uchinchi shaxs, birlik soni shaklini yasovchi "-yapti" hamda o'zlik nisbatini yasovchi "-il" qo'shimchasi ma'nosini beradi.

Tanḥaniy: sen burilayapsan/u burilayapti. Bu so'zda ajratib ko'rsatilgan zoida harflar fe'lining hozirgi zamon shakli, muannas jinsidagi uchinchi shaxs, birlik soni shaklini yasovchi "-yapti" (kontekstga qarab, muzakkar jinsida, "-yapsan" deb ham tarjima qilish mumkin) hamda o'zlik nisbatini yasovchi "-il" qo'shimchasi ma'nosini beradi.

Tansa: sen eshitayapsan/u eshitayapti. Bu so'zda ajratib ko'rsatilgan ta zoida harfi fe'lining hozirgi zamon shakli, muannas jinsidagi uchinchi shaxs, birlik soni shaklini yasovchi "-yapti" (kontekstga qarab, muzakkar jinsida, "-yapsan" deb ham tarjima qilish mumkin) qo'shimchasi ma'nosini beradi.

munfa 'ilun; hayajonlanuvchi, hayajonlanayotgan/hayajonlanayapti. Bu yerda ajratib ko'rsatilgan zoida harf fe'lining hozirgi zamon shaklini yasovchi "-yotgan" hamda aniq daraja sifatli shaklini yasovchi "-uvchi", "-yotgan" qo'shimchalari ma'nosini beradi.

4. Sin va ta harflaridan oldin kelayotgan har bir alif, yay, ta va nunlar, o'zidan keyin turgan sin va ta bilan birgalikda, zoida harflar sanaladi. Misol uchun:

Istafhama: so'ramoq.

Yastajmi 'u: yig'ayapti, yig'ilyapti. Bu so'z tarkibidagi yay hozirgi zamon fe'lini yasovchi "-yap" hamda "-ti" shaxs-son qo'shimchasi ma'nosini beradi.

Nastaxriju: qazib chiqarayapmiz. Bu yerda nun hozirgi zamon fe'lini yasovchi "-

yap" hamda "-miz" shaxs-son qo'shimchasi ma'nosini beradi.

Tastashiyru: sen maslahat so'rayapsan/u maslahat so'rayapti. Bu so'z tarkibidagi ta hozirgi zamon fe'lini yasovchi "-yap" hamda "-san" va "-ti" shaxs-son qo'shimchasi ma'nosini beradi.

Yuqorida zoidalar sifatida qayd etib ko'rsatilgan alif, sin hamda ta harflari arab tilida fe'li yasovchi prefikslar sanalib, ular uch o'zakli fe'llarga qo'shib, o'ninchi bob fe'li shaklini hosil qiladilar. Keltirilgan misollarda o'ninchi bob fe'lini yasovchi zoida harflardan oldin kelayotgan ay, ta va nun harflari esa bu yerda fe'lining hozirgi zamon shakli va shaxs-son qo'shimchalari ma'nosini anglatayapti.

5. To'rt, besh va olti harfli so'zlarning tarkibidagi, oxirgi undoshdan oldin kelayotgan har bir alif, yay, waw harflari zoida harflar sanaladi, shuningdek, ular, bunday holatlarda, cho'ziq "ā", "ū" va "ī" unililarni ham ifodalab keladi. Masalan:

Ṭobībun: davolovchi, shifokor. Bu so'z aslida, "ṭobba" ("davolamoq") fe'lidan yasalgan bo'lib, bu yerda yay ("ī") harfi fe'ldan ot yasovchi "-lovchi" qo'shimchasi vazifasini bajarmoqda.

Rihānun: garovlar. Bu so'z arab tilidagi "rahnun" ("garov") so'zining ko'plik shakli bo'lib, alif ("ā") bu yerda ko'plik shaklini yasovchi "-lar" qo'shimchasi vazifasida kelayapti.

G'ofūrun: kechirimli. Ushbu so'z arab tilidagi "kechirmoq" ma'nosini bildiruvchi "g'afara" fe'lidan yasalgan bo'lib, bu yerda waw ("ū") sifat yasovchi "-li" qo'shimchasi vazifasida kelayapti.

6. To'rt harfli so'zning ikkinchi harfi bo'lib kelayotgan har bir alif affiks sanaladi, bu holatda ham alif cho'ziq "ā" unlisini ifodalaydi, masalan:

Kātibun: yozuvchi/yozayapti.

Jālisun: o'tirayotgan/o'tirayapti.

Ṭālibun: izlovchi/izlayapti.

Arab tilida yuqorida keltirilgan misollardagi kabi tuzilgan so'zlar aslida uch o'zakli fe'llarga alif ("ā") zoida harfini qo'shish orqali yasilib, bu yerda alif kontekstga qarab bir necha, "-uvchi", "-lovchi" va "-yotgan" sifatli shakl yasovchi



hamda hozirgi zamon fe 'lining uchinchi shaxs shaklini yasovchi "-ayapti" qo'shimchalari vazifasini bajarib keladi.

7. Besh harfli so'zning uchinchi harfi bo'lib kelayotgan har bir ta zoida harf sanaladi, masalan:

'irtada: kiyinmoq.

'ibtasama: tabassum qilmoq.

'iktasaba: topmoq, izlab qo'lga kiritmoq.

Ushbu misollarda keltirilgan so'zlar tarkibidan joy olgan dastlabki alif, bu yerda u "i" tovushi orqali ifodalanmoqda, hamda ta harflarining uch o'zakli fe 'llarga qo'shilishi natijasida o'zlik nisbati ma 'nosini beruvchi sakkizinchi bob fe 'l shakli yasaladi. Shunga ko'ra, bunday tuzilishli fe 'llardagi ushbu zoida harfni o'zlik nisbati yasovchi "-in", "an", "-it", "-il" qo'shimchalariga muqobil variant sifatida ko'rsatish mumkin. Yana qo'shimcha sifatida, agarda besh o'zakli so'zlarning dastlabki harfi ham ta bo'lsa, bunday holatlarda ham ushbu harf zoida sanaladi va u beshinchi va oltinchi bob fe 'llari tarkibida kuzatiladi.

Shu o'rinda, chalkashlik kelib chiqmasligi uchun yana bir jihatga e 'tibor qaratish lozim. Besh harfli so'zlar tarkibidagi hamzali alif va nun, yoki hozirgi zamon shaklini yasovchi qo'shimchalar (yay, nun, ta) hamda nundan so'ng kelayotgan ta harfi ham zoida sanalib, bunday tarkibli so'zlarda nun o'zak harf, undan avval kelayotgan barcha harflar zoida hisoblanadi, ushbu holatda ham ta harfi o'zlik nisbat yasovchi "-t" qo'shimchasi ma 'nosini anglatadi:

'intabaha: e 'tibor qaratmoq.

'intaha: tugatmoq.

8. So'zning oxirida turgan tamarbuta belgisi ("atun" tovushini bildiradi) ham zoida harf sanaladi. Ushbu belgi arab tilida muannas jinsini bildiradi, misol uchun:

Mazra 'atun: poliz.

Tolibatun: talaba qiz.

9. Uch harfli so'zning oxirida turgan alif va hamza ikkisi zoida harflar vazifasini bajarib keladi. Bu ikki zoida harf so'z oxirida birgalikda kelganda, o'sha so'zning muannas jinsida turganligiga ham ishora qiladi. Misollar:

Samra 'u: bug 'doy rang (muannas jinsida).

Najla 'u: shahlo ko'zli (muannas jinsida).

Hamra 'u: qizil rang (muannas jinsida).

Shahra 'u: sahro (muannas jinsida).

Ushbu keltirilgan misollarning tahlilidan shu narsa ma 'lum bo'ladiki, so'z tarkibidan joy alif va hamza zoida harflari so'zlarning muannas jinsida ekanligini bildirish bilan birga, "ot+sifat+li", "ot+rang" tuzilishli qo'shma va birikmali sifatlarni ham yasaydi.

10. Arabcha so'zning oxirida turgan alif va nun harflari zoida harflar sanaladi. Masalan:

Shofvānu: beg 'ubor, musaffo.

Shinvānu: tug 'ishgan aka-ukalar.

Kaslānu: dangasa, behafsala.

'atshānu: chanqagan.

Demak, keltirilgan misollar, so'zga qo'shilgan alif va nun zoida harflari sifatdosh hamda sifat so'z turkumiga mansub so'zlarni yasab, ular anglatgan ma 'nosiga ko'ra, o'zbek tilidagi sifat yasovchi "be-", "-agan" qo'shimchalariga to'g 'ri keladi. Shuningdek, ushbu zoida harflar "-lar" ko'plik yasovchi qo'shimchasi vazifasini ham bajaradi.

Arab tilidagi birikma olmoshlari hamda shaxs-son qo'shimchalari ham zoida harflar sanaladi:

Katabtu: men yozdim.

Kitaabuhu: uning (muzakkar jinsi) kitobi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilida zoida harflar (affikslar) deyilganda, odatda, "alyawma tansāhu" iborasi tarkibiga kiruvchi harflar tushunilib, ular o'zak so'zga qo'shib, ism va fe 'l turkumlariga oid so'zlarni yasashga xizmat qiladi. Shuningdek, ular so'z yasovchilik vazifasi bilan birga so'z o'zgartiruvchi va shakl yasovchi affikslar vazifasini ham bajarib keladi. Zamonaviy arab tilshunosligida yuqoridagi ibora tarkibida kelgan harflar affikslar vazifasida kelishi qayd etilgan bo'lsa, klassik davr arab tilshunosligida, nafaqat ular, balki arab alifbosidagi barcha harflar - sha, za va shod bundan mustasno -, affiks bo'lib kela oladi, degan fikrni ham bildirganlar. Ular affiks bo'lib qo'shilgan hosila so'zlarda ma 'noning



butunlay o'zgarishi, uning kuchayishi yoki umuman o'zgarishligi holatlarini ham ko'rdik. Ammo, hozirgi kunda ushbu harflarning affiks vazifasida kelishi umuman kuzatilmaydi, bu holat mumtoz arab tili davrida shakllangan so'zlarga xos jihatdir. Shuningdek, arab tilida hosila so'z tarkibidagi zoida harflar (affikslar) ni ajratishda ularning so'z tarkibida joylashgan o'rniga ham ahamiyat berish lozim. Odatda, shakl o'zgartiruvchi zoida harflar so'z oxiriga

qo'shilsa, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi zoida harflar so'zning boshi yoki o'rtasiga qo'shilib kelar ekan. Yana, arab tilshunosligida uch o'zakli so'z tarkibidagi birinchi, ikkinchi va uchinchi undosh harflarning yolg'iz o'zi yoki yonidagi o'zak undosh bilan birga takrorlanishi natijasida ham so'zlar yasalib, bunda ushbu takrorlangan harflar ham zoida harflar, deya sanalar ekan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. المنصف، شرح الإمام أبي الفتح عثمان بن جني النحوي لكتاب التصريف لإمام أبي عثمان المازني النحوي البصري، تحقيق: إبراهيم مصطفى عبد الله أمين، إدارة إحياء التراث القديم وزارة المعارف (القاهرة)، الطبعة الأولى 1393- هـ 1943. - ج 1 ص 11،
2. ياسر محمد البدوي محمد. الزيادة و دلالتها الصرفية و النحوية. السودان، -2012. ص. 22.
3. (Affix(language)) زائدة (لغة)
4. عبد الرزاق بن فراج الصاعدي. حروف الزيادة الصرفية ثمانية و ليست عشرة المدينة. 2012. <https://www.google.com/amp/s/www.al-madina.com/ampArticle/192027>
5. <https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar/>
6. Б.М.Грандэ. Введение в сравнительное изучение семитских языков. Издательская фирма «Восточная литература» РАН, -Москва: -1998. -С.101.
7. N. Ibrohimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, – Toshkent, 1997. – 33 b.
8. Azim Hojiyev. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, – Toshkent: 2010.
9. Qo'shimcha va ularning turlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruzalar matni. 2013. – 23 b.
10. "An-na'im" arabcha-o'zbekcha lug'ati. –Toshkent :2003.

Махмудова Д. Буквы зоида (аффиксы) на арабском языке. В арабской лингвистике тема аффиксов широко изучается в последние годы, и лингвисты разделили их на несколько типов в зависимости от расположения аффиксов в слове и от того, как в итоге они влияют на значение слова. Кроме того, большинство арабских ученых отмечают, что количество аффиксов в арабском языке равно десяти, но в то же время как некоторые лингвисты говорят, что их число равно восьми. Аффиксы в арабском языке неразрывно связаны с типом морфологии словообразования, и их добавление к основе приводит к образованию прилагательных, производных частей глагола и масдара. В этой статье представлена информация об аффиксах на арабском языке и о подходах к ним арабских лингвистов и характеристиках размещения аффиксов в структуре слова, и каждая проанализированная информация поясняется с примерами.

Maxmudova D. Zaida letters in Arabic language. In Arabic linguistics, the topic of affixes has been widely studied in recent years, and linguists have divided them into several types according to their place in the word and how they affect the meaning of the word as a result. Also, most Arab scholars note that the number of affixes in Arabic is ten, while some linguists say that their number is eight. Affixes in the Arabic language are inextricably linked to the type of morphology of word formation, and their addition to the stem results in the formation of adjectives, derivative parts of the verb, and masdar. This article provides information on affixes in Arabic, the approaches of Arabic linguists to them, and the characteristics of the placement of affixes in the word structure, and each analyzed information is explained with examples.